Tadqiqot.uz

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

# O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR:

## DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022 **2022**




**SENTYABR**

**№44**

Toshkent shahar, Amir Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.

+998 97 420 88 81
+998 94 404 00 00

www.taqiqot.uz
www.conferences.uz

CONFERENCES.UZ

# ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 11-ҚИСМ

# НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ КОНФЕРЕНЦИЙ: ЧАСТЬ-11

# NATIONAL RESEARCHES OF UZBEKISTAN: CONFERENCES SERIES: PART-11

ТОШКЕНТ-2022

**УУК 001 (062)**
**КБК 72я43**

**“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]**

**“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:”** мавзусидаги республика 44-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 сентябрь 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 12 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

**1.Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши**
Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

**2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**
Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фарғона давлат университети)

**3.Тарих саҳифаларидаги изланишлар**
Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

**4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**
Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

**5.Давлат бошқаруви**
Доцент Шакирова Шохида Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

**6.Журналистика**
Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

**7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**
Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

**8.Адабиёт**
PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни**
Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар**
Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**
Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**
Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**
Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**
Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Мусиқа ва ҳаёт**
Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**
Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**
Доцент Сохадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган мухандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**
Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**
Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**20.Ветеринария**
Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**21.Кимё фанлари ютуқлари**
Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)

**22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**
Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

**23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**
Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**
Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25.География**
Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

***Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.***

**© Муаллифлар жамоаси**
**© Tadqiqot.uz**

**PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

## ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ВА СПОРТ

**1. Abduvoxid Mamatov Mamadaliyevich**
JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA O‘YINLARDAN FOYDALANIB O‘QITISH.............7
**2. Jamoldin Osarov Zokirjonovich**
MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARDA JISMONIY MADANIYAT .........................................9
**3. Xushnudbek Shixov Omonovich**
SPORTGA BO’LGAN E’TIBOR-KELAJAKKA E’TIBOR!....................................................11

# ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ВА СПОРТ

## JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA O'YINLARDAN FOYDALANIB O'QITISH

**Abduvoxid Mamatov Mamadaliyevich**
Namangan viloyati Norin tuman
19-maktab jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi
942289588 mamatovabduvohid@gmail.com

**Annotatsiya**: Ushbu maqola maktab yoshdagi o'quvchilarni jismoniy tarbiya darslarida jismoniy madaniyatini rivojlantirish haqida kerakli ma'lumotlar berilgan va ushbu tezis umumta'lim maktabi o'qituvchilarga metodik qo'llanma sifatida foydalanish uchun tavsiya etiladi.

**Kalit so'zlar:** Jismoniy tarbiya, o'yinlar, tarbiya jarayonlari, o'yin tarixi, xulqi, o'z aro munosabatlar, o'yin metodlari, qiziqarli, innavatsion usul.

*Bugungi kun ta'limda keng innavatsion usullardan foydalanish o'quvchilarni ham jismonan , ham aqlan fikrlashi kengayishiga olib keladi* jismoniy tarbiya jarayonida foydalaniladigan o'yinlarning ko'pchilik belgilarini o'zida mujassamlashtiradi. Darslikning «Jismoniy mashqlarning pedagogic klassifikatsiyasi» bo'limida o'yin jismoniy mashq xarakteridagi tizim tarzida, ya'ni jismoniy tarbiya vositasi ko'rinishida berilgan. Lekin, jismoniy tarbiya jarayonida o'yinlar ta'lim va tarbiya jarayonining samarali metodlari sifatida amaliyotda keng ko'lamda foydalaniladi. Shu sababli o'yin metodining tabiatini o'yinning mohiyatini ochish orqaligina tushunish mumkin xolos.«O'yinning mohiyatini o'rganishning nisbatan perespektiv yo'nalishi *uslublashtirish nazariyasi* xisoblanib, insonning oldindan belgilangan xayotiy sharoitda o'zining yurish-turishi, xulqi chegarasida ishlab chiqarilgan o'ziga xos elementlarning modelidir» - deb tavsif beradi Rossiya federatsiyasining professori Yu. I. Yevseev (2008). O'yinda shartli ravishda butun bir hayotiy sharoit o'z ifodasini topishi mumkin (masalan, taqlid qilish, jang qilish, ov qilish sharoiti va boshqalar). Ya'ni inson harakat faoliyatining ayrimlari - turmush, mehnat, mudofaa faoliyati xarakteridagi harakatlar bo'lib, ularda asosan odamlar orasidagi o'zaro munosabat modelining mavjudliligi yotadi. O'yin tarixan vujudga kelgan jamiyat xodisasi bo'lib, odamlarning harbiy va mehnat faoliyati asosida paydo bo'lgan va u inson hayotining moddiy va ijtimoiy sharoitlari bilan belgilanadi. O'yin xayotiy reallikni aks ettiradi va bir vaqtning o'zida o'zining sof shartli konunlariga bo'ysunadi. U bizni o'rab olgan borliqni o'zgartirishni nazarda tutmaydi, lekin, insonni ijodiy mehnatga tayyorlovchi shart sifatida inson madaniyatining muhim manbai rolini o'ynaydi. SHunga bog'liq, holda o'yin quyidagi xizmatlarni bajaradi: -insonni jismoniy va ruhiy kuchlarini takomillashtiradi, ijtimoiy faollik va ijodkorliki tarbiyalaydi, ko'ngil ochish, o'zaro munosabatlarini, shuningdek, ularni o'rab olgan muhit orasidagi munosabatlarni shakllantiradi. Qayd qilinganlar o'yinlarning yo'nalishi va mazmunini belgilaydi. Jismoniy tarbiya jarayonidagi barcha o'yinlarning asosiy mazmunini insonni jismoniy kamolotta erishtirishga imkoniyat yaratuvchi harakat faoliyatlarini o'z ichiga oladi. O'yinlar hamda gimnastika, sport, turizmdagi farqni ko'p holda shartli, deb tan olishimiz lozim, bu shartlar tarbiya vositalarining turlarini rivojlanishi me'yoriga ko'ra yanada yaqqol namoyon bo'ladi. O'yinlarga konkret harakat faoliyatlari tizimi deb qarash zarur. Ular belgilangan qoidalar chegarasida bajariladi va uslubiyot sifatida jismoniy mashq xarakteriga qaramay, turlicha pedagogik vazifalarni hal etishi uchun qo'llaniladi. O'yinlar uslubiyot tarzida faqat umumiy qabul qilinganlaridek amalga oshirilmaydi.

1. O'yin holati *raqiblilik va emotsionallik* elementlarini aniq ifodalaydi. O'yin metodi shug'ullanuvchilar orasidagi eng qiyin munosabatlarni yuzaga chiqarishi imkonini beradi. Eng oddiy yugurish musobaqalari sharoitida qatnashuvchilar orasida tarbiyaviy ahamiyatiga ko'ra shunchalar ko'p qirrali holatlar vujudga keladiki, lekin, u ikki o'yinchi o'rtasidagi yuzaga keladigan holatlardan ancha farqlanadi.
2. Harakat faoliyatini bajarish davomida *sharoitning o'zgaruvchanligi.* Paydo bo'ladigan

harakat vazifalarni hal qilishda o’yinchilarni turli-tuman imkoniyatlarga ega bo’lishi; shakllangan malakalar esa o’zgaruvchan sharoitda moslanuvchanligi va egiluvchanligi bilan farqlanadilar.

3. Harakat faoliyatidagi ij*odiy tashabbuslarga* yuqori talablar qo‘yish. O‘yin holatining o‘zgaruvchanligi jismoniy mashqlarning natija beradiganlarini tanlashni va mustaqillikni faolroq namoyon qilish talabini qo‘yadi.

4. Harakat faoliyatining chegaralanmaganligi va jismoniy yuklamaning xarakteriga ko‘ra *qat’iy reglamenlashtirishning* yo‘qligi. O‘quvchilar maxsus yoki shartli (soddalashtirilgan, murakkablashtarilgan) qoidalar chegarasida paydo bo‘lgan harakat faoliyati vazifalarini hal qilish uchun samarali xisoblagan harakat faoliyatlaridan o‘zlari foydalanishlari mumkin. O‘quvchiga tushayotgan jismoniy nagruzka to‘laligicha uning o‘yinda bajarayotgan funktsiyasi, faoliyat, bajara olish darajasi, o‘yinchilar soni, o‘yin mazmuni va oldindan belgilangan sharoiti (o‘yindan foydalanish uslubiyoti)ning davomiyligi boshqalar bilan bog‘liq.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Jismoniy madaniyat nazariyati uslubiy qo‘llanma  T. Ismoilov Namangan 2021

2. Jismoniy madaniyat nazariyati uslubiy qo‘llanma va metodikasi. B.Boboyev  Namangan 2021

3. www.ziyonet.

# MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARDA JISMONIY MADANIYAT

**Jamoldin Osarov Zokirjonovich**
Namangan viloyati Norin tuman
19-maktab jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi
972579185 jamoldinosarov@gmail.com

**Annotatsiya***:* Ushbu maqola maktab yoshdagi o‘quvchilarni jismoniy tarbiya darslarida jismoniy madaniyatini rivojlantirish haqida kerakli ma‘lumotlar berilgan va ushbu tezis umumta‘lim maktabi o‘qituvchilarga metodik qo‘llanma sifatida foydalanish uchun tavsiya etiladi.

**Kalit so‘zlar:** Jismoniy madaniyat, vazifalari, bolalik, sport, rivojlanish vatan mudofasi, o‘quvchilik, turmush tarsi, sog‘lom turmush, xususiyatlar.

Maktab yoshidagi bolalar jismoniy madaniyatini shakllantirish jarayoni biz pedagoglardan maktab o‘quvchilari bilan ishlash jarayonida ularning jismoniy madaniyatini asosi, uning mazmuni, strukturasi, vositalari, tashkillash shakllari, hayotiy zaruriy harakatlarga hamda jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanishga o‘rgatishning metodlariga oid maxsus kasbiy nazariy va kasbiy amaliy bilimlarga ega bo‘lishni talab qiladi. Mamlakatimizda sifati xalqaro me’yorlarga javob beradigan 11 yillik majburiy ta‘lim joriy etildi. Prezidentimiz har tomonlama rivojlangan, jismonan sog‘lom va ma‘naviy barkamol avlod tarbiyasini O‘zbekistonni rivojlanishida vazifalardan biri darajasiga ko‘tardi. Jismonan har tomonlama rivojlanishning poydevori majburiy ta‘lim jarayonining barcha bo‘g‘inlari (maktabgacha yoshdagilar, maktab yoshidagilar, kasb-hunar kollejlari, oliy ta‘lim tizimi)da jismoniy madaniyat ta‘limi, jismoniy tarbiya jarayoni tarzida uzluksiz yo‘lga qo‘yish strategiyasini ishlab chiqdi va uni amalga oshirmoqda. Maktab yoshidagilar jismoniy madaniyatining maqsadi, vazifalari Maktab yoshi «bolalik», «ikkinchi bolalik», «o‘smirlik» va «ilk yoshlik» davri deb guruhlanib o‘quvchi jismining shakllanishi, rivojlanishi, jisman har tomonlama tayyorgarligi, kuchi, chidamliligi, chaqqonligi, tezkorligi, egiluvchanligi degan ko‘rsatkichlarda qisqa vaqt ichidagi keskin o‘zgarishlarni sodir bo‘lishi bilan kechadi. Bu davr katta yoshdalik va qarilik davridagi jismoniy holatini yoshiga munosib darajada, kasalliklarsiz, faqat fiziologik qarish bilan kechishiga tag zamin bo‘lib xizmat qiladi. Jismoniy barkamollikka zamin tayyorlash faqat jismoniy rivojlanganlik va jismoniy tayyorgarligini yaxshilash, uni o‘z yoshi talablari darajasida ushlashni bilishdek, o‘quvchilik davrida egallagan jismoniy bilimlari bilan bog‘liq. Maktab yoshidagilar jismoniy madaniyati va jismoniy tarbiyasi jarayonining maqsadi asta sekinlik bilan o‘quvchilarni jismoniy kamolotga erishtirish va shu asnoda ularni hayotga, ijodiy mehnatga, Vatan mudofaasiga tashyorlash hamda ularni sog‘lom turmush tarzi jismoniy madaniyati (STTJM) sohibiga aylantirishni nazarda tutadi. O‘quvchilar jismoniy tarbiyasi va jismoniy madaniyatini shakllantirish jarayonida umumiy va xususiy vazifalar hal qilinadi. Umumiy vazifalar - bilim berish, jisman tarbiyalash va ularning oganizmini jismoniy madaniyat vositalari orqali sog‘lomlashtirishdan iborat. Xususiy vazafalari esa jismoniy tarbiyadan Davlat talim standarti (DTS) tavsiya qilgan dasturdagi o‘rta maxsus umumiy davlat jismoniy tarbiya ta‘limi vazifalari bo‘lib, ular:

1) o‘quvchilar organizmining sog‘ligini mustahkamlash, rivojlantirish va chiniqtirishdek STTJM odobiga ega qilish;

2) turli xildagi mehnat faoliyatiga tayyor bo‘lish uchun yoshi va egallayotgan kasbxunariga xos bo‘lgan harakat sifatlarni rivojlantirish;

3) hayot uchun zaruriy harakat malakalari va ko‘nikmalarini rivojlantirish va hayotiy faaliyatining keyingi davrida kerak bo‘ladiganlari bilan qurollantirish;

4) o‘quvchilarga umumiy o‘rta ta‘lim me’yorida jismoniy madaniyatga oid yangi nazariy jismoniy bilimlarni berish va ularni yildan yilga takomillashtirish;

5) o‘quvchilarni jismoniy mashqlar bilan muntazam shug‘ullanishga qiziqtirish va unga turg‘un odatni shakllantirish;

6) o‘quvchilarni jismoniy madaniyat faollari qilib shakllantirish va bu bilan ularda tashkilotchilik qobiliyatini yuzaga keltirish. Xar bir individ, eng avvalo, birovga o‘xshashi bilan emas, balki aksincha, boshqa birovga o‘xshamasligi bilan ajralib turishi, shuning nomi individuum deb atalishi, yana xam soddaroq qilib aytadigan bo‘lsak, shaxs-individ deb atalishi fanda qabul qilingan. Xar bir shaxs, individ uchun faqat o‘zigagina xos bo‘lgan «ichki bebaho dunyo» tizimi xarakterlidir.

O‘z navbatida bu har birimizning vujudimiz - organizmimizga ham xosdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Jismoniy madaniyat nazariyati uslubiy qo‘llanma T. Ismoilov Namangan 2021
2. Jismoniy madaniyat nazariyati uslubiy qo‘llanma va metodikasi. B.Boboyev Namangan 2021
3. www.ziyonet.

# SPORTGA BO’LGAN E’TIBOR-KELAJAKKA E’TIBOR!

**Xushnudbek Shixov Omonovich**
Xorazm viloyati Shovot tumanidagi
15 – umumiy o’rta ta’lim maktabining
jismoniy tarbiya fani o’qituvchisi
xushnudbek@inbox.uz,91- 278-61-71

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada shaxmatchilarimizning qo’lga kiritgan yutuqlari haqida so’z yuritiladi.

**Kalit so’zlar:** sog‘lom va barkamol,

Sport aholi salomatligini mustahkamlash, yosh avlodni sog‘lom va barkamol etib tarbiyalash orqali jamiyatda sog‘lom turmush tarzini qaror toptiradi. Sport yuksak madaniyat, vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishda ham muhim o‘rin tutadi. Yurtimizda yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug‘ullanishi uchun zarur sharoitlar yaratildi. Iste’dodli bolalarni tanlash va professional sportchilarni tayyorlash bo‘yicha uzluksiz tizim yaratildi. Shahar va qishloqlarda zamonaviy sport komplekslari bunyod etildi. “Umid nihollari”, “Barkamol avlod” va Universiada musobaqalari yoshlarni ommaviy sportga, sog‘lom turmush tarziga oshno qilish vositasiga aylandi.

Umumta’lim maktablari va bolalar sport majmualaridagi mashg‘ulotlarda qobiliyati ko‘zga tashlangan o‘g‘il-qizlar bolalar va o‘smirlar sport maktablari, sport kollejlariga, internatlariga olinib, professional yondashuvlar asosida tarbiyalanmoqda… Buning natijasida mamlakatimiz sportchilari jahonning nufuzli musobaqalarida yuksak g‘alabalarni qo‘lga kiritib, xalqimiz salohiyatini butun dunyoga namoyon qilmoqda. Bu sohada erishilgan yutuqlar mamlakatni dunyoga tanitadi, barcha yurtdoshlarga g‘urur-iftixor bag‘ishlaydi.

Yaqinda bo’lib o’tgan shaxmat olimpiadasi ham buning yaqqol dalilidir.Yangi O‘zbekiston farzandlari-shaxmatchilarimiz tamonidan Mustaqilligimizning 31-yillik to’yiga to’yona sifatida yaqinda Hindistonning Chinnay shahrida o’tkazilgan “Butunjahon 44-shaxmat olimpiadasi”da faxrli 1-o’rinni egallashlari shaxmat sportiga qaratgan e’tibor natijasidir. Bunda hurmatli prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyevning shaxmat sportiga qaratayotgan ehtirom va e’tibori natijasi deb qarasak mubolag’a bo’lmaydi. Ishonchimiz komilki, Prezidentimiz tashabbusi bilan 2026-yili o’tkaziladigan “Butunjahon 45-shaxmat olimpiadasi”da rivojlangan mamlakat shaxmatchilari ham “Biz chempionlar yurtiga boryabmiz” deb boshqacha tayyorgarlik ko’rib keladi va bizning sportchilarimiz chempionlikni munosib himoya qilishadi. Nasib qilsa qizlar terma jamoamiz vakilalari ham keyingi “Butunjahon 45-shaxmat olimpiadasi”da 1-o’rinni egallashadi. Biz shaxmat murabbiylari sizlarga,xalqmizga, Prezidentimizga shuni va’da beramizki, yaratilgan sharoitlardan unumli foydalanib munosib yangi yosh shaxmatchilar tayyorlab jahonga chempionlar yetishtirishda bor kuch va salohiyatimizni ayamaymiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. J. Tolipova N.No’monova Ta’lim – tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Toshkent, Sharq, 2017

# ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 11-ҚИСМ

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович
**Мусаҳҳиҳ:** Файзиев Фаррух Фармонович
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.09.2022

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000